BADIIY DIALOGLARDA XALQ SHEVALARINING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TALQINI

Eshqurbonova Aziza Bozor qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
pochta: eshkurbanovs@tersu.uz
Тел: +998996878267

Annotatsiya. Mazkur maqolada asar badiiyligini, xalqchilligini ta'minlashda dialektizmlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shevaga xos birliklarning fonetik, leksik, grammatik turlari dialogik matnlar orqali tahlil qilingan. Badiiy asarlarda qahramon nutqining pragmatik xususiyatlarini ochib berishda shevaga xos so`zlarning ham o`z o`rni borligi, ular suhbatdoshlar o`rtasidagi munosabatni yuzaga chiqaruvchi asosiy til birliklaridan hisoblanishi, qahramonlar nutqini individuallashtirishga xizmat qiluvchi va qahramonlarning ichki, ma'naviy xarakterlarini ochishga xizmat qiluvchi vosita etilganligi tadqiq qilingan.

Tayanch so'zlar: *dialektizm, fonetik dialektizm, leksik dialektizm, grammatik dialektizm, etnografik dialektizmlar, sof va semantik dialektizmlar.*

Аннотация. В данной статье обсуждалось значение диалектизмов в обеспечении художественности, народности произведения. Фонетические, лексические, грамматические типы диалектно-специфических единиц анализировались с помощью диалогических текстов. Исследовано, что в художественных произведениях в раскрытии прагматических особенностей речи персонажей также играет роль диалектно-специфическая лексика, считающаяся одной из основных языковых единиц, выявляющих взаимоотношения между собеседниками, служащая средством

индивидуализации речи героев и раскрывающая внутренние, духовные характеры героев.

Ключевие слова: *диалектизм, фонетический диалектизм, лексический диалектизм, грамматический диалектизм, этнографические диалектизмы, чистые и семантические диалектизмы.*

Annotation. This article reflects on the importance of dialecticisms in ensuring the artistry, folkness of the work. Phonetic, lexical, grammatical types of units specific to the dialect have been analyzed through dialogical texts. In the works of art, it was studied that words specific to the dialect also play a role in revealing the pragmatic features of the hero's speech, they are calculated from the main language units that bring the relationship between interlocutors to the surface, a tool that serves to individualize the speech of heroes and opens up the internal, spiritual characters of heroes.

Key words: *dialecticism, phonetic dialectism, lexical dialectism, grammatical dialectism, ethnographic dialectisms, pure and semantic dialectisms.*

Badiiy asar shunday daraxtki, uning shohida umumbashariy mevalar yetiladi, ildizi esa milliy zaminda yotadi.(O`.Hoshimov) O`zbek badiiy asarlarida o‘zbekona ruh, mentalitet bilan bog‘liq jarayonlar, udumlar, urf-odatlar, lingvomadaniy xususiyatlar asar qahramonlari o‘rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga chiqadi. Badiiy asarning eng muhim vazifalaridan biri bu kommunikativ – muloqot bo‘lib, unda o‘zida insoniy tuyg‘ularni mujassam etgan obrazlarning bir yoki bir necha hudud aholisi o‘rtasidagi muomala – muloqot, aloqa-aralashuvini namoyon qiladi. Bu esa muloqotning o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lgan nutqiy tizimini yuzaga keltirishi, tabiiy.

Ma’lumki, adabiy til doimo rivojlanishda va taraqqiyotda bo‘ladi. U vaqti-

vaqti bilan noadabiy qatlamlardan oziqlanib turadi. Shuni ta'kidlash kerakki, xalq tilining me'yorlashtirilgan adabiy nutqqa kirib borishi uzluksiz, o'zgarmas jarayondir. Til madaniyatning bir qismidir, shuning uchun til bilan sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlar jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning aksidir. Adabiy tilning boyishida va takomillashuvida noadabiy qatlamlarning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan shevalarning xizmati beqiyosdir. Badiiy asar tilining boy va jozibador bo‘lishida ham dialektizmlarning o‘rni va roli muhimdir. "Badiiy asar tilining ifodaliligi, qahramonlar nutqining individuallashganligi ko‘p jihatdan o‘rinli va meyorida qo‘llangan sheva unsurlariga bog‘liq"[1.]

Asar qahramonlari nutqining pragmatik xususiyatlarini ochib berishda so‘zlovchining nutqiy jarayoni muhim ahamiyatga ega. “Nutq subyektining talaffuz imkoniyatlari ta’sirida lingvistik pragmatikaning asosiy boshlang‘ich muammolari yuzaga chiqadi... Demak, milliy va dialektik talaffuzning to‘g‘ri va noto‘g‘ri shakllarini lingvistik pragmatika uchun boshlang‘ich masala deb qarash zarur”[2].

Mualliflar asardagi ahamiyatli voqealarni tasfirlashda ,ularni ta’kidlashda asar qahramonlari nutqida turli xil ifoda usullariga murojaat qilishadi. Asar badiiyligini, xalqchilligini ta’minlashda mualliflar dialektizmlar, tabu va efimzlardan, maqol va iboralardan foydalanadilar. Bunday turdagi barcha so'z va iboralar ma'lum darajada baho, stilistik ifoda va ahamiyatga ega. Bu so'zlar badiiy asar ifodaliligini kuchaytiruvchi vositalardir. Ushbu hodisani o'rgangan tilshunoslarning ta'kidlashicha, bir xil so'z bir nechta ekspressiv ekvivalentlarga ega bo'lishi mumkin, ammo ular hissiy rang berish darajasida farqlanadi. Yozuvchilar o`z qahramonlarini o`zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda , hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga

xos so`zlarni ishlatadilar. Dialektizmlar (sheva so`zlari) mahalliy kalorit va hududiy mansublikni o`zida aniq aks ettirish bilan birga "badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo`llanishi bilan bog`liqdir.[3].

Badiiy asarlarda so‘z san'ati qimmatini oshirishda dialektal leksikaning ahamiyati kattadir. Dialektizmlar asar qhramonlari nutqini individuallashtirish vositalaridan hisoblanib, ular asarda obrazlilikni yuzaga keltiruvchi estetik vazifani bajarishga va o‘ziga xos uslubiy ahamiyat kasb etishga xizmat qiladi. Dialektizmlarning qahramon nutqini individuallashtirishdagi roli va ahamiyatini o‘zbek badiiy asarlari tilida qo‘llangan turli shevaga oid so‘zlar, grammatik vositalar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Chunki badiiy asarlarida tanlangan mavzuga muvofiq turli tarixiy davr va xalq hayoti tasvir etiladi. Ularning qaysi davr va sheva vakili ekanliklari esa gap-so‘zlaridan anglashinib turadi. Buni badiiy asar tili tadqiq etilgan barcha ilmiy ishlarda kuzatishimiz mumkin. Masalan, tadqiqotchi B.Fayzullayev dialektizmlar orqali qahramonlar nutqini individuallashtirishda ikki xil usul - asar voqeasi kechayotgan hududdagi sheva vakillarining o‘ziga xos nutqini berish, asar voqeasi kechayotgan hududga boshqa sheva vakillarini kiritish va ularning nutqini berish masalasiga e'tibor bergan.[4] S.Tursunov «Alpomish» dostonining leksik xususiyatlarini tekshirar ekan, undagi dialektal leksikani lug‘aviy, grammatik, fonetik va frazeologik dialektizmlarga ajratib o‘rganadi. [5.]

Tilshunoslika oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik, leksik, grammatik dialektizmlar tarzida talqin qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni o`zgartirib qo`llash, tovush orttirilishi,

tovush tushushi va tovushlarni qavatlab qo`llash ko`rinishida namoyon bo`ladi[M.Yo`ldoshev]. Badiiy matnlarda shevadagi fonetik o‘zgarishdan estetik maqsad ifodalashda foydalaniladi, chunki bunday o`zgarish, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi, qolaversa, hududiy mansublikni ta'kidlashga xizmat qiladi, qahramon nutqining individualligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fonetik dialektizmlarning hosil bo`lishi fonetik jarayonlar- tovush o`zgarishi, tovush orttirilishi, tovush tushushi, tovush ikkilanishi kabi hodisalar bilan yuzaga chiqadi:

[1] - H-a-a! Nima deysiz?

- Turdingma-a, bolam?! Turdingma?

- Kallai saharlab qishloqni boshingizga ko‘tarasiz-a. Odamga uyqu bermaysiz!..

- Otali olti to‘ydi, enali yetti to‘ydi, bolam. Senlar uxlayverasan-a?

- Ena-a-a! Sizga nima zaril-a? Nima zaril?! Itga tinim bor, qushga tinim bor, sizga tinim yo‘q...(Q.Norqobil.Nozi...Nozigul.)

[2] - Ey-ey, bular sinipdoshlar, tanidingma? Sinipdoshlarga ham otdelniy joy qil- dik. Endi to‘planishyapti. Sen ularga e'tibor berma, qani hayda, to‘rga haydayber, osobiy joy bor... Hokim, prokuror, nachalbnik milisa, soliqning boshligi, yana viloyatdan kelgan kattalar bor. Seni kutishyapti.

Sarvar bazmxona etagida, ostona yonida tuzalgan stol atrofidagilarga ming bir xijolat girdobida boqdi.

- Nima deyapsan? Axir sinfdoshlar yig‘ilgan ekan, men ham ulaming yoniga boraman. Ular nima deb o‘ylashadi?

- Qo‘y, bulardi. Katta odamsan. Kattalarga qo‘shil. Kutishyapti. (Q.Norqobil.Nozi...Nozigul.)

Ushbu dialogik matnda ham yozuvchi fonetik dialektizmlar va so`zlashuv uslubiga xos fonetik hodisalardan hamda rus tilidan o`zlashgan so`zlarning shevalashgan variantlaridan o`rinli foydalanganki, bularsiz yozuvchi asarlari jozibasi va xalqchilligini tasavvur qilish qiyin.

Badiiy asar mualliflari leksik dialektizmlarni asar qahramonlari nutqiga mohirlik bilan singdirishga harakat qilishadi va bu esa asar voqealarining yanada qiziqarli bo`lishini ta'minlaydi. Professor M.Yo`ldoshev shevaga xos leksik dialektizmlarni sof leksik, etnografik va semantik dialektizmlar kabi uch turga ajratadi. [6.]

Adabiy tilda ma'nodoshi mavjud bo`lgan dialektizmlar sof leksik dialektizmlar deyiladi:

— Bo'lmasam nimalarni otasiz?

— Nimani otishimni istar edingiz?

— Bilmadim endi, masalan, qutirgan hayvonlarni, molga o'rgangan bo'rini, ishqilib, odamlarga shikast yetkazadigan jondor borki, u o'limga mahkum... (Sh.Xolmirzayev.Omon ovchining o`limi.)

Ushbu dialogik matnda qo`llanilgan jondor asli jonzot ma'nosini bildiradi. Bu yerda ham shu ma'noda qo`llanilgan. Ayrim shevalarda bu so`z bo`ri ma'nosida ham ishlatiladi .

Uyda xotinning g'ishing-g'ishingi ko'paygan edi.

— Yovvoyi odamlarga o'xshaymiz... Siz ketganda, kunduz kuniyam qo'rqaman bu yerda... Yosh bola bir o'zi markazga qatnaydi. Hademay qish kiradi...

— Men hech qayoqqa bormayman... Men ham shuning yoshida qatnar edim markazga... — deb qo'yardi Omon.

Bir kecha boyoqish juda zorlandi:

— Shamollapti o‘g‘lingiz. Ichiray desam, sut yo‘q, tomog‘iga malham bo‘lardi. Tog‘dagi juvanalaringiz inak bo‘lguncha kosamiz oqarmas ekan...

— Xotin, chidasang — shu, chidamasang jo‘na! — dedi Omon. (Sh.Xolmirzayev.Omon ovchining o`limi.)

Bu matnda shevaga oid- juvana- tana ya’ni bir-ikki yoshli urg`ochi buzoq va inak- sigir ma’nolarida qo`llanilganligini ko`rishimiz mumkin. Har ikkala dialogik matnlarda qo`llanilgan shevaga xos so`zlar ma’lum hududga xos milliylikni bo`rttirib ko`rsatish va ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o`zlariga xos bo`lgan urf-odatlarining nomlari etnografik dialektizmlar deyiladi:

Ichimdan zil ketib tushuntirdim:

-Jon kelin, shoshib qoldik. Ukangiz xat yozibdi. Robiyaning boshini bog`lab qo`yinglar, debdi. Oqsoqolning maslahati bilan shu ishni bugun qila qoldik. Xabar bermoqchi edik, Pochchangiz bozorga ketdi. Qaysi kuni Robiya ko`tarmaga borsa yo`q ekansiz. Qudam tuzukmilar?

-Shukur... – Ra’noxon mayin jilmydi. – Kecha qaytdim. (O`.Hoshimov. Ikki eshik orasi.172.)

Ushbu dialogik matnda qo`llanilgan “boshini bog`lab qo`ymoq” dialekti unashtirmoq ma’nosida kelgan .Ushbu so`z turli hududlarda turlicha aytiladi: non sindirmoq, boshini ikki qilmoq, oq o`rab kelmoq, fotiha qilmoq, ro`mol tashlamoq kabi. Badiiy asarlarda qahramonlar nutqida og‘zaki nutqqa va shevaga oid xususiyatlar o‘ziga xos uslubiy ma’no anglatish vositasi hisoblanadi. Shevaga xos so‘zlar nutqda qo‘llanganda, asar qahramonlarning yosh xususiyatlariga, xarakter xususiyatlariga, nutq paytidagi ruhiy holatiga, kayfiyatiga ham muvofiq keladi.

Grammatik dialektizmlarning morfologik va sintaktik guruhlari mavjud:

- Bilasan. Chori unga uylangandan keyin o'zini osib qo'ydi. Kallasi ketganakan bechoraning. Nozigul bir qizi bilan qop ketdi.

- Buni bilaman... Nega bu yerga kelmadi, deyapman... Aytmovdinglarmi?

- Sabr qil. Aytuvdik. Shaxsan o'zim borib aytdim. Shunday, yozuvchi oshnamiz ham keladi, buytib o'tirma, Nozigul, senam endi dovu davradan qolib yur- ma, deb aytdim. Qizing qo'rqsa, qizingniyam olivol dedim. Qizi bilan ikkovi otasi Haydar boboning choldevorida yashayapti. Eshitgandirsan, Haydar boboyam o'tgan yili qazo qildi.

- Haydar boboyam o`ldimi? Buni eshitmagan ekanman, oshna.

- Ha, endi. Ertaga bir fotihaga borib qo'y.

- Boraman, oshna, boraman. Birga boramiz, menga qara, Nozi... Nozigul erinikidan kep qo'yivdimi?

- Hey, odamlar, odamlar-a! Chori kantujning ota-onasi o'gli buytib o'lgandan keyin Nozigulga kun bermadi. Bolamni vos-vos qilgansan, deb kelin bechorani ko'chaga haydab solishdi. Uyammas-buyammas, Chori kantuj yashagan hovlini Nozigulga bergisi kelmadi. (Q.Norqobil. Nozi...Nozigul.)

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, badiiy asarlarda qahramon nutqining pragmatik xususiyatlarini ochib berishda shevaga xos so`zlarning ham o`z o`rni bo`lib, ular suhbatdoshlar o`rtasidagi munosabatni yuzaga chiqaruvchi asosiy til birliklaridan hisoblanadi, qahramonlar nutqini individuallashtirishga xizmat qiladi, qahramonlarning ichki, ma'naviy xarakterlarini ochishga xizmat qiladi hamda asarda tasvir etilgan voqealar yuzasidan unga mahalliy va tarixiy kolorit beradi. Asar qahramonlar nutqida qo'llangan dialektizmlar fonetik, leksik, grammatik shakllari bilan ko'zga tashlanib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 29.
2. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. –Toshkent: "Akademnashr", 2013. – B.27.
3. Abdurahmonov X.Mahmudov N.So`z estetikasi
4. Tilshunoslik masalalari (to'plam). – T.: Fan, 1978.-B.208.
5. Tursunov S. Leksicheskiye osobennosti dastana «Alpamish».: Avtoref. kand. diss. –T.: 1990.B.7-11.
6. M.Yo'ldoshev. Cho`lpon so`zining sirlari. Toshkent. Ma'naviyat. 2002. B.42.